IJTIMOIY KONFLIKTLARNING TURLARI VA SABABLARI

Toshev Olmos Nuriddinovich
IMTI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy konfliktlarning mohiyati, ularning kelib chiqish sabablari, rivojlanish bosqichlari hamda jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy konfliktlarni boshqarish va oldini olishning samarali usullari yoritiladi. Ijtimoiy konfliktlar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, ular turli manfaatlar, qadriyatlar va ijtimoiy qarashlarning to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida insonlar, ijtimoiy guruhlar va institutlar o‘rtasida turli xil ziddiyatlar paydo bo‘lishi tabiiy hol hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy konflikt, ziddiyat, jamiyat, manfaatlar to‘qnashuvi, ijtimoiy muvozanat, konfliktologiya.

Kirish. Zamonaviy jamiyat rivojlanish jarayonida turli xil ijtimoiy jarayonlar, o‘zgarishlar va qarama-qarshiliklar bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlarning ajralmas qismi sifatida ijtimoiy konfliktlar muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy konfliktlar jamiyatdagi turli guruhlar, shaxslar va institutlar o‘rtasidagi manfaatlar, maqsadlar hamda qarashlar to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Ular jamiyat taraqqiyotiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ijtimoiy konflikt jamiyatdagi qarama-qarshiliklarning eng yuqori bosqichi sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan, konfliktlarni chuqur o‘rganish, ularning kelib chiqish sabablari, tuzilishi, turlari va hal etish mexanizmlarini aniqlash ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. “Konflikt” tushunchasiga nisbatan eng umumiy yondoshuvga ko‘ra , u ziddiyatga umumiy tushuncha sifatida , eng avvalo , ijtimoiy ziddiyat sifatida qaraladigan tushunchadir. XX asrning 30-yillari oxirida bir qator mualliflar tomonidan ijtimoiyistik jamiyatni “konfliktsiz” rivojlanishi , antagonistik qarama - qarshiliklarning bo‘lmasligi haqidagi g‘oya ilgari surilgan . Bu g‘oya ijtimoiylashuvda ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqaruvchi kuchlar harakteriga to‘liq mos kelishi haqidagi shiorda o‘zining to‘la ifodasini topgan. Keyinchalik bunday mos kelish faqat bir-biriga qarshi turgan ikki tomonning bir-biri bilan uyg‘unlashgandagina namoyon bo‘lishi tan olingan. Mos kelishlik qarama -qarshiliklar birligi doirasida qo‘shilgan (birlashgan) vaqtda ziddiyatlar rivojining muayyan bosqichi sifatida talqin qilingan. Boshqa guruq faylasuflar esa ijtimoiylashuvning asosiy ziddiyatlari bu ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish

munosabatlari o‘rtasida, ba’zan ishlab chiqarish bilan iste’mol o‘rtasida, eski bilan yangi o‘rtasida ziddiyat deb tushunganlar. Bir guruh ingliz olimlarning fikricha, “Konfliktlar bu hayotning muqarrar va ko‘pincha ijodiy bo‘lgan bir qismidir. Konfliktlar insonlarning maqsadlari farklanganda yuzaga keladi. Kelishmovchiliklar va konfliktlar odatda zo‘rlik qo‘llanilmasdan hal qilinadi va ko‘pincha barcha jalb qilingan tomonlarning ahvolini yaxshilanishiga olib keladi. Bu holat konfliktlar bizning mavjudlimizning bir qismi bo‘lganligi bois to‘la adolatli hisoblanadi.”. Demak , ziddiyatlar muammolari muayyan darajada ilmiy adabiyotda olimlar e’tiborini o‘ziga tortgan . Biroq , bu holatni konfliktlar nazariyasiga taalluqli deb bo‘lmaydi , chunki mohiyat jihatidan unga umuman e’tibor berilmagan . Shunga qaramasdan ziddiyatlar va konfliktni , bir tomondan , sinonimlar sifatida hisoblash mumkin emas , boshqa tomondan esa , ularni bir - biriga qarama - qarshi qo‘yib ham bo‘lmaydi . Ziddiyatlar , qarama - qarshi turishlik , tafovutlar - bular konflikt uchun zarur , biroq yetarli shartlar emas . Qarama - qarshi turishlik va ziddiyatlar , qachonki ularni ifodalovchi kuchlar o‘zaro ta’sirga , o‘zaro munosabatga kirisha boshlaganda konfliktga aylanadi . Shunday qilib , konflikt obyektiv yoki subyektiv qarama - qarshiliklar , ziddiyatlar bo‘lib , u taraflarning bir - biriga nisbatan qarama - qarshi kurashida ifodalanadi . Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki , bu fikrni jamiyatga taqqoslaganda gap mavhum kuchlar , kosmik va boshqa tabiiy hodisalar , shuningdek ¦ g‘ayrioddiy fenomenlar (taqdir , tanilmagan obyekt va sh.k.) haqida emas , balki ijtimoiy subyektlar sanalgan muayyan odamlar , individlar , ijtimoiy guruhlar va qatlamlar , siyosiy partiyalar yoki davlatlar haqida boradi . Gap aynan ijtimoiy (ijtimoiy) konflikt haqida boradi , bunda ikki yoki undan ortik individ yoki guruhning muayyan maqsadga erishish yo‘lida bir - biriga xalaqit berish , raqobatdoshining manfaatlarini qondirishni yo‘qqa chiqarish yoki uning qarashlarini va ijtimoiy mavqeini o‘zgartirish imkoniyatini astoydil , faol tarzda ro‘yobga chiqarish jarayoni nazarda tutiladi.

Ijtimoiy konflikt – bu shaxslar, ijtimoiy guruhlar yoki butun jamiyat o‘rtasidagi manfaatlar, maqsadlar va pozitsiyalarning o‘zaro to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarning eng yuqori rivojlangan shaklidir. Konfliktlar yashirin yoki ochiq ko‘rinishda bo‘lishi mumkin, ammo ularning asosida har doim kelishmovchilik yotadi.

Ijtimoiy konfliktning muhim jihati shundaki, u nafaqat salbiy hodisa sifatida, balki jamiyat rivojiga turtki beruvchi omil sifatida ham qaraladi. Chunki konfliktlar orqali jamiyatdagi muammolar yuzaga chiqadi va ularni hal qilish zarurati paydo bo‘ladi

Ijtimoiy konflikt murakkab tuzilishga ega bo‘lib, unda bir nechta asosiy elementlar mavjud:

Birinchidan, konflikt subyektlari – ya’ni nizoda ishtirok etuvchi tomonlar. Ularga bevosita ishtirokchilar, sheriklar, qo‘zg‘atuvchilar, guvohlar va vositachilar kiradi. Har bir subyekt konfliktning rivojlanishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, konflikt predmeti – nizoning asosiy mavzusi yoki muammosi hisoblanadi. Bu konflikt nimaning ustida yuzaga kelayotganini bildiradi.

Uchinchidan, konflikt sabablari – nizoning paydo bo‘lishiga olib keluvchi omillar bo‘lib, ular ko‘pincha ob’ektiv yoki sub’ektiv xarakterga ega bo‘ladi. Ba’zan kichik sabab ham katta konfliktga turtki bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy konfliktlar turli mezonlarga ko‘ra tasniflanadi.

Ishtirokchilar soniga ko‘ra konfliktlar intrapersonal (shaxs ichidagi), shaxslararo va guruhlararo turlarga bo‘linadi. Intrapersonal konflikt insonning ichki qarama-qarshiliklari bilan bog‘liq bo‘lsa, shaxslararo konflikt ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasida yuzaga keladi. Guruhlararo konflikt esa turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni ifodalaydi.

Yo‘nalishiga ko‘ra konfliktlar gorizontal, vertikal va aralash shakllarga ega. Gorizontal konfliktlar teng maqomdagi shaxslar o‘rtasida yuzaga kelsa, vertikal konfliktlar bo‘ysunuv munosabatlari mavjud bo‘lgan hollarda kuzatiladi.

Kelib chiqishiga ko‘ra konfliktlar ob’ektiv va sub’ektiv turlarga ajratiladi. Ob’ektiv konfliktlar real ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lsa, sub’ektiv konfliktlar insonlarning shaxsiy xususiyatlari va qarashlari bilan izohlanadi.

Shuningdek, konfliktlar vazifasiga ko‘ra ijodiy (integrativ) va buzg‘unchi (destruktiv) bo‘lishi mumkin. Ijodiy konfliktlar yangilanish va rivojlanishga xizmat qilsa, buzg‘unchi konfliktlar ijtimoiy tizimni izdan chiqaradi.

Ijtimoiy konfliktlarning rivojlanish bosqichlari

Har qanday ijtimoiy konflikt ma’lum bosqichlar orqali rivojlanadi.

Birinchi bosqich – mojarodan oldingi holat bo‘lib, bunda tomonlar o‘z imkoniyatlarini baholaydi va strategiya ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – konfliktning faol bosqichi bo‘lib, unda tomonlar o‘zaro ochiq yoki yashirin kurash olib boradi. Bu bosqichda nizolar keskinlashadi.

Uchinchi bosqich – konfliktni hal etish bosqichi bo‘lib, unda tomonlar o‘zaro kelishuvga erishadi yoki konflikt tashqi ta’sir orqali bartaraf etiladi.

Ijtimoiy konfliktlarni hal etishda turli usullar qo‘llaniladi. Eng samarali usullardan biri muzokaralar hisoblanadi. Muzokaralar orqali tomonlar o‘zaro manfaatli yechimga erishishi mumkin.

Bundan tashqari, vositachilik instituti ham muhim ahamiyatga ega. Vositachi tomonlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni yumshatadi va murosaga kelishga yordam beradi.

Konfliktdan qochish, kechiktirish, arbitraj kabi usullar ham mavjud bo‘lib, ular vaziyatga qarab qo‘llaniladi. Biroq har bir usulning o‘ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud.

Ijtimoiy konfliktlar turli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ularning ijobiy jihatlari quyidagilardan iborat: jamiyatdagi muammolarni ochib berish, ijtimoiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish, guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash.

Salbiy oqibatlariga esa ijtimoiy beqarorlik, ziddiyatlarning kuchayishi, jamiyatda bo‘linish holatlarining yuzaga kelishi kiradi. Shu sababli konfliktlarni boshqarish va ularni konstruktiv yo‘nalishga yo‘naltirish muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy konfliktlar jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, ular turli sabablar asosida yuzaga keladi va murakkab tuzilishga ega. Konfliktlar nafaqat salbiy, balki ijobiy funksiyalarni ham bajarishi mumkin. Ularni samarali boshqarish, sabablarini chuqur tahlil qilish va to‘g‘ri hal etish jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ijtimoiy konfliktlarni ilmiy asosda o‘rganish va amaliy choralar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Konfliktologiya: uchebnik / pod red. A. S. Karmina. – Izd. 2-ye, ispr. – SPb: Lan, 2000.
2. Lebedeva M. M. Politicheskoye uregulirovaniye konfliktov: podxodi, resheniya, texnologii. – M.: Aspekt Press, 1997.
3. Leonov N. I. Osnovi konfliktologii: uchebnoye posobiye. Ijevsk: Udmurtskiy universitet, 2000.
4. Osnovi konfliktologii / pod red. V. N. Kudryavseva. – M., 1997.
5. Fisher R. Put k soglasiyu, ili Peregovori bez porajeniya / R. Fisher, U. Yuri. – M., 1990.
6. Doych M. Razresheniye konflikta. Konstruktivniye i destruktivniye protsessi // Sotsialno-politicheskiy jurnal. – 1997.– № 1.